

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/27.12.2025.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEV OYBEK ALISHER O'G'LI

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O'QUV-KORREKSION
JARAYONNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH
TEXNOLOGIYALARI (Nurli maskanlar misolida)

13.00.03-Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

CHIRCHIQ-2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Abdullayev Oybek Alisher o‘g‘li

Individual yondashuv asosida o‘quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik
qo‘llab-quvvatlash texnologiyalari (Nurli maskanlar misolida)..... 3

Абдуллаев Ойбек Алишер угли

Технологии педагогико-психологической поддержки учебно-коррекционного
процесса на основе индивидуального подхода (на примере «Nurli
maskan»)..... 21

Abdullaev Oybek Alisher ugli

Technologies of pedagogical and psychological support of the educational and
correctional process based on an individual approach (a case study of “Nurli
maskan”) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 47

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/27.12.2025.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEV OYBEK ALISHER O'G'LI

**INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O'QUV-KORREKSION
JARAYONNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH
TEXNOLOGIYALARI (Nurli maskanlar misolida)**

13.00.03-Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

CHIRCHIQ-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Ped12343 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz/uz ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usarov Jabbor Eshbekovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Abidova Nilufar Zakirovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Salomova Feruza Xakimbekovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/27.12.2025.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «4» 08 soat 10⁴⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (572 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «27» 04 kuni tarqatildi.
(2026-yil «27» 07 da 28 - raqamli reyestr bayonnomasi).



F.U. Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

I.D. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi
p.f.d. (PhD), dotsent

D.O. Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi
p.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda maxsus va inklyuziv ta'lim sohasida kadrlar tayyorlashning individual yondashuvga asoslangan texnologiyalari hamda innovatsion pedagogik strategiyalari joriy etilgan. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini o'quvchilarning individual xususiyatlari, akademik-ijtimoiy ehtiyojlariga yo'nalgan holda tashkil etish o'ziga xos kompleks jarayon sanaladi. Unda individual talim tamoyillari hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ergonomik talablari ustuvorlik qiladi. YuNESKO tomonidan inklyuziv va korreksion ta'lim sharoitida pedagoglarning kasbiy kompetentligini tizimli rivojlantirish, ular uchun qulay axborot muhitini yaratish bilan bog'liq vazifalar yeshimi taklif etilgan. Ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashda maxsus pedagoglarning metodik, diagnostik, kreativ kompetensiyalarini integrativ rivojlantirish dolzarb sanaladi. Bunda korreksion-kompensatsion yo'nalgan mexanizmlar va texnologiyalarni tanlash, fanlar mazmuniga hamda o'quvchilarning akademik-ijtimoiy rivojlanish traektoriyasiga mos qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda yetakchi oliy ta'lim muassasalarida va ilmiy tekshirish markazlarida individual ta'limni inklyuziv va korreksion ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishning individual yondashuvga asoslangan dasturlari, konsepsiyalari va pedagogik strategiyalarini joriy etish muhim sanaladi. Bu esa, ta'lim muassasalarida o'quv-korreksion jarayonni o'quvchilarning o'zlashtirish xususiyatlari hamda birlamchi va ikkilamchi nuqsonlari darajalari, chuqurligiga ko'ra pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini takomillashtirishni talab etadi. Individual yondashuvga asoslangan o'quv-korreksion jarayonni relaks, faollashtiruvchi texnologiyalar, do'stona munosabatli, qadriyatli mexanizmlar vositasida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, ko'zi ojiz bolalarda o'qish motivatsiyasi, ijtimoiy faollik va kommunikatsiya ko'nikmalarini intensiv rivojlantirishning adaptiv texnologiyalarini, didaktik ta'minotini takomillashtirish modelini ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda inklyuziv va maxsus ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'limning modifikatsion shakllarini qo'llash, o'quv muhiti qulayligi va sifatini ta'minlashning me'yoriy asoslari takomillashtirilgan. "O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifani amalga oshirishda rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlash, ularning birlamchi va ikkilamchi kamchiliklarini bartaraf etish metodlarini tadqiq qilish dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, individual yondashuv asosida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash hamda ijtimoiylashtirish jarayonini pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini takomillashtirish muhim sanaladi. Bunda korreksion-rivojlantiruvchi o'quv muhitini

pedagogik prognostika asosida modellashtirish, psixologik barqarorlik mezonlari asosida yaratish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli, 2019-yil 29-aprelda “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli, 2022-yil 28-yanvarda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrda “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-sonli, 2024-yil 25-yanvarda “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 46-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovation g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda iivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni maxsus va inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qitish, tarbiyalash hamda ijtimoiylashtirishning pedagogik, psixologik va tashkiliy-metodik jihatlari mamlakatimiz olimlari G.S.Abdullaeva, M.M.Arslonova, F.U.Qodirova, D.B.Yakubjanovlar tomonidan, ta’lim jarayonining tashkiliy-metodik asoslari takomillash masalalari Sh.E.Toxtiyorov, Sh.M. Amirsaidova, M.P. Xamidova, V.S. Raxmanovalar tomonidan, ta’limni individuallashtirish va differensial yondashuvni amalga oshirishga oid ilmiy qarashlar L.R. Muminova, U.Yu.Fayzieva, R.Sh.Shomahmudova tadqiqotlarida asoslab berilgan bo‘lsa, M.Y. Ayupova, D.A. Nurkeldiyeva, M.F. Xakimova ishlari rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyati, diagnostika va korreksiya jarayonlariga bag‘ishlangan. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim jarayoni xususiyatlari N. Abidova, G. Berdiev, Z. Djalolova, D. Musayev, D. Sultonova, A.Q. Xoliqov, Sh. Xalilovalar tomonidan tiflopedagogika yo‘nalishida o‘rganilgan.

MDH olimlaridan G.A.Sukerman, A.A.Makarenko, A.Treshenko, A.A.Oprishko, A.Maslou, D.A.Leontev, A.A. Kirsanov, N.Podyakov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari individual ta’lim shaxsning hamda faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Individual ta’lim berish orqali ta’lim oluvchilarning akademik, ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash va bu jarayonda pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini qo‘llashning metodik aspektlari

B.S.Gershunskiy, A.V.Baratshayev, Y.A.Kustov, S.M.Godnik boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Xorijiy tadqiqotlar tajribasida individual ta'limning konseptual xususiyatlarini ishlab shiqish bo'yisha R.Dave, J.Minser, T.W.Sshultz, Hutmasher, E.A.Baller va boshqalar tadqiqot ishlar olib borgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi individual yondashuv asosida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Nurli maskan"larda o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-kompensatsion komponentlarini aniqlash;

"Nurli maskan"larda o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning adaptiv modelini takomillashtirish;

o'quv fanlari va korreksion mashg'ulotlarda ko'zi ojiz o'quvchilarning akademik-ijtimoiy faoliyatini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish;

o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning individual ta'lim paradigmalariga asoslangan didaktik ta'minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida individual yondashuv asosida o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Andijon, Sirdaryo va Toshkent shahar "Nurli maskan"larining jami 151 nafar tayyorlov sinf o'quvchilari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini individual yondashuv asosida o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini takomillashtirishning mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida manbalar va tajribalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat); pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Nurli maskan"larda o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-kompensatsion imkoniyatlari birlamchi va davriy diagnostikada ikkilamchi nuqsonlar korreksiyasini modellashtirishga asos bo'luvchi tibbiy-psixologopedagogik anamnez tarkibiga emotsional sfera barqarorligini oydinlashtiruvchi personal indikatorlarni kiritish orqali aniqlashtirilgan;

"Nurli maskan"larda o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning adaptiv modeli vizual yetishmovchilikning klinik-pedagogik simptomatikasiga mos akademik-ijtimoiy mashrutni sensomotor

ta'sirning bo'shliqlar diagnostikasiga yo'naltirilgan metodik modifikatsiyalarda tiflotexnik moslashuvchanlikda joriy etish asosida takomillashtirilgan;

o'quv fanlari va korreksion mashg'ulotlarda ko'zi ojiz o'quvchilarning akademik-ijtimoiy faoliyatini tashkil etish texnologiyalari og'zaki hisob va grammatik ifodalashga o'rgatuvchi bo'rtirma va audial kontentni assistiv-didaktik jarayonda kinestetik qayta ishlovning qisqa intervallarida qo'llash asosida takomillashtirilgan;

o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning individual ta'lim paradigmalariga asoslangan didaktik ta'minoti diagnostika, korreksiya, adaptatsiyaning integral kompleksini o'quvchilarda o'rganish motivatsiyasi, ijtimoiy faollik va kommunikatsiyani ijobiy dinamikada rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda differensial kontekstlarda qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

individual yondashuv asosida "Nurli maskan"larda o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-kompensatsion imkoniyatlari va metodik aspektlarini umumpedagogik va didaktik nuqtai nazaridan tahlil qilish hamda o'rganishni ta'minlash maqsadida "Mutaxassislikka kirish" va "Введение в специальность" nomli darsliklari nashr qilingan va amaliyotga joriy etilgan;

"Nurli maskan"larda o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning amaliy yo'nalgan komponentlari asosida o'qituvchi va tarbiyachilar uchun korreksiya mashg'ulotlari hamda ona tili, matematika fanlariga oid darslarda ko'zi ojiz o'quvchilarning akademik-ijtimoiy faoliyatini individual yo'naltirishga mo'ljallangan "Individual rivojlanish xaritasi" modellari ishlab chiqilgan va o'quv tarbiya jarayoniniga tadbqiq etilgan;

vizual yetishmovchilikning klinik-pedagogik simptomatikasiga mos hamda bo'shliqlar diagnostikasiga yo'naltirilgan sensomotor ta'sirni metodik modellashtirish va o'quvchilarning tiflotexnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan bo'rtirma resurslar hamda Brayl tizimida integral lug'at ishlab chiqilgan;

ko'zi ojiz o'quvchilarning og'zaki hisob va grammatik ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali fanlardan o'zlashtirishni hamda ijtimoiy faollikni ta'minlashga qaratilgan pedagoglar, ota-onalar uchun "Ko'zi ojiz bolalarni o'qitish va tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari" nomli seminar dasturi hamda mashg'ulotlar ishlanmalari, ijtimoiy-metodik flaerlar ishlab chiqildi va joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy yondashuvlar, metodlarning respublikamiz va xorijda yaratilgan pedagogika va maxsus pedagogikaga oid ilmiy va ilmiy-metodik tadqiqotlarga, professor-o'qituvshilarning tajribasiga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvshi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvshi tadqiqot metodlarining qo'llanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari

yordamida qayta ishlanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Nurli maskan”larda o‘quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning individual yondashuv paradigmalariga asoslangan komponentlari va ijtimoiy-kompensatsion imkoniyatlariga oid xorijiy va milliy tajribalarning tahlil etilganligi, ko‘zi ojiz o‘quvchilarning o‘rganish motivatsiyasi, kommunikativligi va ijtimoiy faolligini rivojlantiruvchi innovatsion-metodik tizimning texnologik jihatdan takomillashtirilganligi, matematika, ona tili fanlaridan o‘zlashtirishni ijobiy dinamikada prognozlash va ta‘minlashga qaratilgan tiflotexnik-assistiv resurslarning modifikatsiyalari differensial, sensomotor ta‘sir muhitiga adaptivlashtirilganligi, o‘qituvchi, tarbiyachi va ota-onalar uchun tiflopedagogik, tiflopsixologik, tiflodidaktik tamoyillarga asoslangan metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ko‘rishida muammolari bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalari aniqlanganligi hamda tadqiqot natijasida taklif etilgan tavsiyalar va metodik ko‘rsatmalardan maxsus va inklyuziv ta‘lim amaliyotida faoliyat olib borayotgan fan o‘qituvchilari, tarbiyachilari, psixologlarining malakasini oshirish kurslarida, shu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini modellashtirishda, “Nurli maskan”larda o‘quv-korreksion jarayonini didaktik takomillashtirishda foydalanilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Nurli maskan”larda o‘quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

“Nurli maskan”larda o‘quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy-kompensatsion imkoniyatlari, shuningdek, birlamchi va davriy diagnostika jarayonlarida ikkilamchi nuqsonlar korreksiyasini modellashtirishga asos bo‘luvchi tibbiy-psixologik-pedagogik anamnez tarkibiga emotsional sfera barqarorligini aniqlashtiruvchi personal indikatorlarni kiritishga oid takliflar “Mutaxassislikka kirish” nomli darslik mazmuniga integratsiya qilingan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-706-son guvohnomasi). Natijada, ko‘zi ojiz bolalarning akademik-ijtimoiy faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha nazariy va amaliy ma‘lumotlarni o‘rganish imkoniyati yaratilgan;

“Nurli maskan”larda o‘quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning adaptiv modeli vizual yetishmovchilikning klinik-pedagogik simptomatikasiga mos akademik-ijtimoiy mashrutni sensomotor ta‘sirning bo‘shliqlar diagnostikasiga yo‘naltirilgan metodik modifikatsiyalarda tiflotexnik moslashuvchanlikda joriy etishga oid tavsiyalar Respublikasi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazining dalolatnomasida e‘tirof etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining “O‘quvchilarni kasb-hunarga

yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis” markazining 2025-yil 25-dekabrda 01/10-01-429-sonli yig‘ilish asosida). Natijada, ko‘zi ojiz bolalarni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning diagnostik, audiokinetik va korreksion-kompensatsion texnologiyalarining ommalashishiga erishilgan;

o‘quv fanlari va korreksion mashg‘ulotlarda ko‘zi ojiz o‘quvchilarning akademik-ijtimoiy faoliyatini tashkil etish texnologiyalari og‘zaki hisob va grammatik ifodalashga o‘rgatuvchi bo‘rtirma va audial kontentni assistiv-didaktik jarayonda kinestetik qayta ishlovning qisqa intervallarida qo‘llashga oid takliflari Farg‘ona davlat universitetida “Ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor va ko‘zi ojiz o‘quvchilarga mental arifmetika yordamida arifmetik amallarni o‘rgatish” mavzusida amalga oshirilgan innovatsion loyihaning metodik bloki mazmunini ishlab chiqishda foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2026-yil 16-yanvardagi 04/384-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ko‘zi ojiz bolalarning mental rivojlanishini pedagogik-psixologik monitoring qilish yo‘llari va instrumentlarini ommalashtirishga xizmat qilgan.

o‘quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning individual ta‘lim paradigmalariga asoslangan didaktik ta‘minoti diagnostika, korreksiya, adaptatsiyaning integral kompleksini o‘quvchilarda o‘rganish motivatsiyasi, ijtimoiy faollik va kommunikatsiyani ijobiy dinamikada rivojlantirishga doir goylar “Введение в специальность” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrda 429-709-son guvohnomasi). Natijada, o‘quv-korreksion jarayonni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan differensial kontekstlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta, shundan, respublika jurnallarida 4 ta, xorijiy jurnalda 5 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida maxsus va inklyuziv ta‘lim sohasida individual yondashuvga asoslangan innovatsion pedagogik strategiyalar va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning jahon hamjamiyatidagi o‘rni hamda respublikamiz ta‘lim tizimini modernizatsiyalash sharoitidagi konseptual ahamiyati ochib berilgan. Alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan, xususan, ko‘rishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan “Nurli maskan” ta‘lim muassasalarida o‘quv-korreksion jarayonni o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga yo‘naltirish, korreksion-kompensatsion mexanizmlarni didaktik fanlar integratsiyasida qo‘llash hamda tiflopedagogik prognostika asosida

rivojlantiruvchi o'quv muhitini modellashtirishning ilmiy-metodik zarurati asoslab berilgan. Mazkur muammoning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalar bilan uzviy bog'liqlikda yoritilgan. Tadqiqotning metodologik apparatini shakllantirish jarayonida maxsus pedagogika va psixologiya sohasida xorijiy, MDH va milliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar qiyosiy tahlil etilib, muammoning o'rganilganlik darajasi aniqlashtirilgan. Shunga ko'ra, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti belgilangan, shuningdek, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar korreksiyasini modellashtirishga asos bo'luvchi personal indikatorlarni kiritish, tiflotexnik moslashuvchanlikda akademik-ijtimoiy marshrutni takomillashtirish hamda didaktik ta'minotni differensial kontekstlarda qo'llash bilan bog'liq ilmiy yangiliklar tizimlashtirilgan. Natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatatsiyasi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi xususidagi mezoniy ma'lumotlar atroflicha bayon qilingan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"“Nurli maskan” ta'lim muassasalarida o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari"** deb nomlangan bo'lib, unda "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktablarida amalga oshiriladigan korreksion-pedagogik jarayonni tashkil etishda individual yondashuv metodikasining konseptual imkoniyatlari hamda ushbu tizimning o'ziga xos ijtimoiy-didaktik zarurati tahlil qilingan.

Yurtimizda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish yuzasidan belgilangan konseptual vazifalar doirasida ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilarni insonparvarlik tamoyillari negizida o'qitish, tarbiyalash hamda ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Maktab muhitida korreksion-pedagogik faoliyatni tizimli yo'lga qo'yish orqali ko'zi ojiz bolalarni mustaqil hayotga har tomonlama tayyorlash alohida metodologik yondashuvni talab etadi. Davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim va tarbiya tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish birinchi darajali vazifa qilib qo'yilganini inobatga olsak, mazkur strategik maqsadni "Nurli maskan"lar amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy maxsus pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'quv-korreksion jarayonlarni individuallashtirish strategiyasi ta'lim mazmunini bevosita bola imkoniyatlariga moslashtirish va shaxsiy hayotiy tajribalar zaxirasiga tayanib tashkil etish orqali kutilgan samaradorlikni ta'minlaydi. Taniqli respublika olimlari R.Safarova va E.G'oziyev hamda xorijiy tadqiqotchi A.Tereshenkolarning ilmiy xulosalarida qayd etilishicha, o'quv faoliyatini individual loyihalashtirishning bosh sharti talabalarda tashqi pedagogik ta'sirlarga nisbatan sub'ektiv mustaqillik hissini shakllantirishdan iboratdir. Mazkur yondashuv, A.Maslou hamda D.A.Leontevlarning nazariy qarashlariga ko'ra, bolani ongli intilish va ijodiy faollikka rag'batlantirish bilan bir qatorda, N.Poddyakov tadqiqotlarida ko'rsatilganidek, shaxsning aqliy, jismoniy, ma'naviy va axloqiy jihatdan barqaror kamol topishiga zamin yaratadi.

Individual yondashuv ko'rish qobiliyatidagi yetishmovchiliklar oqibatida yuzaga keladigan birlamchi va ikkilamchi cheklovlarni neytrallashtirishga hamda tizimli didaktik o'zgarishlarni chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik omildir. A.A.Kirsanov, G.A.Sukerman va Yu.Babanskiylarning ilmiy asarlarida isbotlanganidek, individual trayektoriyaga asoslangan modellashtirish o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqaradi. K.S.Burov o'z izlanishlarida shaxsga yo'naltirilgan barqaror ta'limni murakkab va integrativ sifat sifatida tavsiflagan bo'lsa, A.A.Oprishko axborot texnologiyalari yordamida o'qitishni individuallashtirish orqali har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatish doirasi amaliy jihatdan kengayishini dalillagan.

Tizimli o'rganishlar va nazariy umumlashmalarga tayangan holda, tadqiqotimiz doirasida individual yondashuv tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifini kiritdik:

Individual yondashuv – ta'lim oluvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, qobiliyati, qiziqishi, ruhiy holati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda differensial o'qitish metodlarini tanlashni hamda barchaga bir xil talab qo'yish an'anasidan voz kechib, “har bir inson – alohida olam” tamoyili asosida ish tutishni ta'minlovchi unikal didaktik tizimdir.

Pedagogik-psixologik yo'nalishdagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zlashtirish jarayoni yangi bilimlarni qabul qilish va shu bilimlar asosida maqsadli harakatlarni bajarish kabi ikki fundamental komponentdan tashkil topadi, buni o'z vaqtida I.I.Ilyasov ham asoslab bergan. Ushbu jarayonning ichki tuzilishi dunyo didakt olimlari talqinida o'ziga xos tarzda tizimlashtirilgan. Xususan, Ya.A.Komenskiy konseptual qarashlarida tushunish va yodlash mexanizmlariga, A.Disterveg bilimlarni qidirish va mustahkamlash bosqichlariga, K.D.Ushinskiy qabul qilish va xotirada saqlash funksiyalariga, K.Koffka muvaffaqiyat motivatsiyasi va xotira aloqadorligiga, V.D.Shadrikov esa faoliyatni kognitiv o'zlashtirish va amaliy harakatlar sinergiya tizimiga alohida urg'u beradi.

O'qitish jarayonining komponentlar tarkibi V.Lay va P.F.Kapterevalar tomonidan axborotni idrok etish, qayta ishlash hamda amaliyotda ifodalash ko'rinishida, L.B.Itelson asarlarida esa idrok, qidirish va yodlash shaklida, ya'ni uch bosqichli modelda bayon qilingan. Bundan tashqari, R.Gengi selektiv idrok, kodlash, saqlash va bajarish bosqichlarini o'z ichiga olgan, A.Bandura esa diqqat, tushunish, xotira hamda motorika elementlariga tayanuvchi to'rt komponentli tizimli modellarni ilgari surgan. Mazkur qonuniyatlar “Nurli maskan” muassasalarida o'quv-korreksion muhit imkoniyatlarini davriy va boshlang'ich diagnostika qilish hamda rivojlanishdagi og'ishlarni o'z vaqtida bartaraf etish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchi faolligi va uning tuzilishi borasida ham ilm-fanda turlicha yondashuvlar mavjud. D.B.Elkonin o'quv faoliyatini sub'ekt tomonidan shaxsiy maqsad sifatida ongli qabul qilingan va ta'lim-tarbiya vazifalarini realizatsiya qilishga yo'naltirilgan tizim deb hisoblaydi. V.V.Davidov va T.I.Shamova kabi olimlar bolalar turlicha faoliyat shakllarida (o'yin, sport, mehnat) jadal o'rganishini ta'kidlab, “o'quv faoliyati” tushunchasini “o'qitish” atamasi bilan qorishtirmaslik

kerakligini isbotlaganlar. A.M.Novikov esa o'rganish va o'quv faoliyati muayyan vaqt hamda fazoviy makonda yetakchi funksiya sifatida namoyon bo'lishi yoki parallel kechishi (masalan, mehnat faoliyati bilan uyg'unlikda) mumkinligini ko'rsatib o'tgan.

A.V.Xutorskoy rivojlantiruvchi ta'lim natijalari nafaqat tafakkurning o'sishida, balki o'quvchining ichki va tashqi ta'limiy mahsuldorligida aks etishini qayd etsa, S.L.Rubinshteyn o'zlashtirish jarayonining yakuniy natijaga qadar parallel kechuvchi va boshqa faoliyat mahsuli sifatida bo'y ko'rsatuvchi xususiyatlarini aniqlagan. O'z navbatida, Z.X.Xusnuddinova darslarda audial axborot tizimlari va sensor qurilmalardan kompleks foydalanish o'quv jarayonining faoliyatli komponentini sezarli darajada kuchaytirishini ko'rsatib bergan.

Mavjud ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish asnosida, "o'rganish" va "o'quv faoliyati" tushunchalarining sinonimik xususiyatlarini mualliflik nuqtai nazaridan quyidagicha tizimlashtirdik:

O'rganish – bu talabaning yangi bilimlarni egallash bo'yicha keng ma'nodagi faoliyati bo'lib, u faqat o'quvchi bilim olish jarayonida mustaqil ravishda o'quv vazifalarini qo'ya olganda, yangi amaliy harakatlarni bajarganda hamda o'zini-o'zi nazorat qilish va refleksiv baholash ko'nikmalarini o'zlashtirgandagina to'laqonli o'quv faoliyatiga aylanadi.

Individual yo'naltirilgan ta'lim sharoitida ko'rish qobiliyati zaif bolalarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olish kompensatsion-didaktik jihatdan yuqori qimmatga ega. A.Maslou tasnifidagi fiziologik, xavfsizlik, ijtimoiy, hurmat va minnatdorchilikka bo'lgan fundamental ehtiyojlar zanjiri "Nurli maskan"larda shaxsiy rivojlanishdagi to'siqlarni bartaraf etish modelini yaratishni va tizimga personal indikatorlarni kiritishni taqozo etadi. Ko'zi ojiz bolalar ta'limi sog'lom tengdoshlari ta'limidan o'zining spetsifik xususiyatlari bilan farqlanadi. Shu bois, tiflopedagogika sohasidagi faoliyatning asosini ko'rish patologiyalari oqibatlarini tahlil qilish, adaptiv reja va dasturlarni loyihalash hamda emotsional barqarorlikni ta'minlovchi xususiy metodikalarni takomillashtirish tashkil etadi.

Tiflopsixologiya fanida vizual yetishmovchiligi bor shaxslar duch kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-maishiy qiyinchiliklarning 3 ta asosiy turi guruhlashtirilgan: V.A.Barash va A.G.Litvak sog'lom insonlar bilan muloqotdagi to'siqlarni, M.N.Naumov, M.Blades va S.Spenserlar fazoviy mo'ljal olish muammolarini, V.Z.Deniskina va E.M.Sterninalar esa kundalik o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish jarayonidagi murakkabliklarni tadqiq etganlar. Ye.A.Ivanova o'z izlanishlarida ko'zi ojizlik oqibatida stressogen omillar ta'sirida yuzaga keladigan dezadaptatsiyani bartaraf etishda "kopping-xulq-atvor" strategiyalarining o'rni va internal sub'ektiv nazorat lokusini (shaxsiy mas'uliyatni) kuchaytirish mexanizmlarini yoritib bergan.

Tor sensor muhit sharoitida muloqot qiluvchi bolalarda kommunikativ madaniyatni maqsadli shakllantirish zarurati G.V.Nikulina asarlarida isbotlangan bo'lsa, Ye.A.Kurakina tajriba-sinovlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabga begona muhit bo'lgan begona sharoitga moslashishidagi qo'rquv va xavotirlarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan. O'qish-o'rganish jarayonini

mantiqan axborotni idrok etish, uni anglab etish, ko'nikma-malakalarni egallash hamda yakuniy kompetensiyalarga ega bo'lish bosqichlariga ajratish mumkin. Vizual yetishmovchilik sababli ko'zi ojiz o'quvchilar dunyoni eshitish, taktil va teri tuyish orqali idrok etishini inobatga olib, Y.D.Jarinsova taktil va bo'rtirma resurslardan foydalanish didaktik shart ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur jarayon L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga muvofiq, o'quvchining idrok va tafakkurini ijtimoiy muloqot hamda o'zaro yordam orqali rivojlantirishga keng imkoniyat ochadi.

Nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, maxsus muassasalardagi o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi individual rivojlanish xaritasining personal indikatorlarini belgilash uchun zamin hozirlaydi. Birlamchi va davriy monitoring asosida ikkilamchi nuqsonlar korreksiyasini modellashtirish o'quvchilarning intellektual va kognitiv sferasini ijtimoiy o'zaro ta'sir muhitida jadal rivojlantirish imkonini beradi.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Nurli maskan" ta'lim muassasalarida o'quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning zamonaviy texnologiyalari**" deb nomlangan bo'lib, unda ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda individual yondashuvga asoslangan korreksion-pedagogik jarayonlarning konseptual mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda tiflopedagogik va tiflopsixologik hamrohlik tizimini modernizatsiyalashning adaptiv-texnologik asoslari chuqur tadqiq etilgan. Mazkur bobda o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari o'zaro uzviy yaxlitlikda va zanjirsimon aloqadorlikda faoliyat ko'rsatishi, ya'ni maqsadli komponent ta'lim mazmunini, mazmun esa bevosita amaliy faoliyat ko'lamini belgilashi hamda pirovardida aniq kognitiv natijaning shakllanishini ta'minlashi konseptual aylanma tizim asosida dalillangan. "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlarida ushbu didaktik zanjirning barqarorligini saqlash va rivojlantirish maxsus pedagoglarning tiflotexnik hamda assistiv vositalardan erkin foydalanish darajasiga, ta'lim muhitining ergonomik mezonlariga hamda o'quvchilarni tizimli psixologik qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga chambarchas bog'liqdir. Biz tomonidan takomillashtirilgan korreksion-pedagogik faoliyat mexanizmi ta'lim sub'ektlarini pedagogik-psixologik jihatdan muvofiqlashtirish orqali o'quvchilarning akademik bo'shliqlarini o'z vaqtida to'ldirishga, ularning individual qiyinchiliklarini bartaraf etishga hamda alohida ehtiyojli bolalarni mustaqil hayotga maqsadli yo'naltirishga xizmat qiladi.

Ushbu maxsus muassasalardagi korreksion-pedagogik tizimning o'zagi, birinchi navbatda, teri-tuyish, eshitish, ta'm va hid bilish kabi saqlanib qolgan analizatorlarning kompensatsion qayta tuzilishini hamda oliy nerv faoliyatining zaxira imkoniyatlariga tayanib nuqsonlarni neytrallashtirishni ta'zo etadi. Korreksiya tushunchasi pedagogik usullar yordamida bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarni qisman yoki butunlay tuzatish va yaxshilashni anglatrsa, kompensatsiya esa buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarning o'rnini boshqa saqlangan tizimlar hisobiga to'ldirish va tenglashtirish jarayonidir. Ko'zi ojiz o'quvchilarga taqdim etiladigan materiallarni mexanik ravishda tushunmasdan o'rganish holatlarini bartaraf etish hamda ularda atrofdagi dunyo ob'ektlari haqida

aniq va ob'ektiv tasavvurlarni shakllantirish maqsadida, muassasada olib boriladigan yetti yo'nalishdagi maxsus korreksion mashg'ulotlar tizimi tahlil etildi va metodik jihatdan tizimlashtirildi. Logopediya mashg'ulotlari tizimli logopedik yordamni tashkil etish orqali bolalar nutqidagi fonetik va grammatik nuqsonlarni korreksiyalashga hamda ularni savodxonlik jarayoniga muvaffaqiyatli moslashtirishga yo'naltirilgan. Predmet tasavvurini shakllantirish va ko'ruv idrokini rivojlantirish mashg'ulotlari maxsus psixofiziologik stimulyatorlar hamda kompyuter va televizion displey texnologiyalaridan foydalangan holda, qoldiq ko'rish funksiyalarining faolligini oshirishga hamda ob'ektlarning rangi, shakli, konturi va hajmini polisensor idrok etishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish mashg'ulotlari shaxsiy gigiyena, ovqatlanish, kiyim-kechak, oila va xulq-atvor madaniyati kabi hayotiy yo'nalishlarni rolli o'yinlar hamda ekskursiyalar vositasida o'rgatish orqali bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini osonlashtiradi. Mo'ljal olish va harakatlanish darslari fazoviy dezorientatsiya hamda maktab muhitidagi turli qo'rquv va fobiyalarni bartaraf etishda o'quvchining o'z tanasini yetakchi tayanch nuqtasi sifatida anglashini, bino ichida va ko'chada hasa hamda ovozli lokalizatsiya usullarini o'zlashtirishini ta'minlaydi. Teri tuyish va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish jarayoni mushaklarning tonusini va barmoqlarning harakatchanligini yaxshilovchi barmoq o'yinlari va o'z-o'zini massaj qilish mashqlari orqali relyefli-taktil materiallar va brayl yozuvini aniq obrazli tafakkur asosida idrok etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Davlovchi gimnastika darslari jismoniy faollikning etishmasligi (kamharakatlik) oqibatida yuzaga keladigan tayanch-harakat tizimi deformatsiyalarining oldini oladi hamda puls nazorati ostida jismoniy yuklamalarni asta-sekin oshirish orqali organizmning funksional imkoniyatlarini va shartli refleks aloqalarini tiklaydi. Ritmika mashg'ulotlari esa harakatning musiqa bilan bog'liqligi asosida qurilgan maxsus ritmik mashqlar, badiiy gimnastika va raqs elementlari ostida harakat koordinatsiyasini, nafas olish tizimini, diksiyani, badiiy va estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida **“Nurli maskan” o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan adaptiv pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash modelining** nazariy-metodik asoslarini shakllantirishda, ta'lim jarayonida shaxs faolligini oshirishga qaratilgan B.Skinning bixevioristik modeli, T.Gordonning hissiy muloqot modeli, E.Bernning transakt tahlil yondashuvi, X.Jinotning guruh terapiyasi tamoyillari hamda milliy tiflologik tadqiqotlar asosida N.Abidova va Z.Xusnuddinovalarning nuqsonlarni bartaraf etishga oid ilmiy konsepsiyalari integratsiyalashgan holda tahlil qilindi. Mazkur konseptual asoslarning sinergetik birlashuvi natijasida yaratilgan model to'rtta o'zaro uzviy bog'langan blokdan iborat. Birinchisi – Maqsad bloki bo'lib, ko'zi o'z o'quvchilarning individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularda o'qish motivatsiyasini shakllantirish, ijobiy emotsional-psixologik muhit yaratish va shaxsiy muvaffaqiyat hissini rivojlantirishga qaratilgan. Ikkinchisi – Mazmun bloki bo'lib, ta'lim tizimining ergonomik talablariga mos adaptiv o'quv sharoitlarini hamda mutaxassislar defektolog, psixolog, logoped va ota-onalar o'rtasidagi sinergetik hamkorlik muhiti va uning tashkiliy asoslarini belgilaydi.

Uchinchi – Jarayon bloki bo‘lib, o‘quvchilarning akademik-ijtimoiy faoliyatini uchta strategik yo‘nalishda, ya’ni kognitiv, korreksion hamda ijodiy-ijtimoiy faollik doirasida amaliy topshiriqlar, sensorli treninglar va taktil o‘yinlar orqali tashkil etilishini ta’minlaydi.



1-rasm. “Nurli maskan”larda o‘quv-korreksion jarayonni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning adaptiv modeli

To'rtinchisi – Natijaviy-baholash bloki bo'lib, talabalarni an'anaviy reytingli solishtirish tizimidan voz kechib, dinamik va refleksiv monitoring mezonlari o'qish motivatsiyasi, kommunikativlik, ijtimoiy faollik darajasi asosida o'quvchining shaxsiy o'sish trayektoriyasini yuqori, o'rta va past darajalar kesimida baholaydi.

